Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine

J Chem Good Trad Med, Volume 4, Issue 1, 2025 Chemistry of Goods

INNOVATSION YONDASHUVLARDA SIFAT FALSAFASI VA SIFAT MENEJMENTI INTEGRATSIYASI

G'ofurjon Xolyigitovich Xamrokulov
Toshkent kimyo texnologiya instituti, Sifat va mahsulot xavfsizligini boshqarish kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori
https://orcid.org/0000-0001-8291-3927
Email: hamroqulov0305@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss3.2025.531

Kalit so‘zlar:
innovatsiya, raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish, TQM, Lean, Six Sigma, Agile

Annotatsiya:
Maqolada XXI asrda globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarida sifatga oid yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Sifat falsafasi va sifat menejmentining o‘zaro integratsiyasi, zamonaviy konsepsiyalar (TQM, Kaizen, Lean, Six Sigma, Agile) va ularning afzallik hamda kamchiliklari tahlil qilingan. Shuningdek, IoT, Big Data, AI va Blockchain kabi raqamli texnologiyalarning sifat boshqaruviga integratsiyasi orqali samaradorlik va barqarorlikni oshirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Maqolada sifat falsafasi va menejmenti integratsiyasining amaliy natijalari, korxonalar raqobatbardoshligi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga ta’siri haqida xulosa va takliflar berilgan.

Havola uchun
Xamrokulov, G. X. INTEGRATION OF QUALITY PHILOSOPHY AND QUALITY MANAGEMENT IN INNOVATIVE APPROACHES. Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine, 4(3). https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol4.iss3.2025.531

XXI asrda globallashuv, raqamli transformatsiya va ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonlari korxonalardan nafaqat sifatli mahsulot ishlab chiqarishni, balki ishlab chiqarish jarayonlarini ham uzluksiz takomillashtirib borishni talab qilmoqda. Bozor iqtisodiyotidagi raqobatning kuchayishi, mijozlar ehtiyojlarining ortib borishi va ekologik muammolar sifat masalasiga yangicha yondashuvni zarur qiladi. Bugungi kunda sifatga oid yondashuv ikki asosiy tushunchaga tayanadi: **sifat falsafasi** va **sifat menejmenti**. Sifat falsafasi – bu sifat tushunchasining nazariy, ijtimoiy va falsafiy asoslarini o‘rganadi. Sifat menejmenti esa sifatni amalda ta’minlash, nazorat qilish va doimiy takomillashtirish tizimidir. Ushbu ikki konsepsiyaning uzviy integratsiyasi zamonaviy korxonalar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, raqobatbardoshlikni oshiradi, mijozlar ishonchini mustahkamlaydi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Shu bois, sifatni boshqarishda falsafiy yondashuv bilan amaliy mexanizmlarni uyg‘unlashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Sifat falsafasining innovatsion talqini. Sifat falsafasi qadimdan inson faoliyatining ajralmas qismi sifatida shakllangan. Aristotel, Ibn Sino, Gegel kabi buyuk mutafakkirlar sifatni mavjudlikning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida talqin qilganlar. Bugungi kunda esa bu tushuncha innovatsion yondashuvlar bilan boyib, zamonaviy ehtiyojlarga moslashmoqda. Innovatsion talqinda sifat endi faqat mavjud ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmaydi, balki yangi talab va istaklarni shakllantirish jarayoniga aylanmoqda. Masalan, smartfonlar dastlab oddiy aloqa vositasi bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ular sun’iy intellekt, internet va turli raqamli xizmatlarni o‘zida jamlagan platformaga aylangan. Zamonaviy sifat falsafasi ikki asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

Ob’ektiv jihatlar – mahsulot yoki xizmatning texnik, funksional, ekologik va xavfsizlik ko‘rsatkichlari;

Sub’ektiv jihatlar – iste’molchining tajribasi, dizayn, qulaylik, xizmat sifati va brend obro‘si.

Shunday qilib, innovatsion davrda sifat falsafasi ijtimoiy va texnik omillarni birlashtirgan kompleks konsepsiyaga aylanmoqda. U inson qadriyatlari, ilg‘or texnologiyalar va bozor mexanizmlarining uyg‘unlashuvini ta’minlab, barqaror va raqobatbardosh taraqqiyotga xizmat qiladi.

Sifat menejmentining zamonaviy konsepsiyalari. Bugungi kunda tez o‘zgarayotgan raqobat muhiti, mijozlar talabining murakkablashuvi va texnologik yangiliklar fonida sifatni boshqarishning an’anaviy usullari yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu sababli, korxona va tashkilotlarda sifat menejmentining zamonaviy, innovatsion konsepsiyalari shakllanmoqda(1-jadval).

1-jadval.

Zamonaviy sifat menejmenti konsepsiyalari va ularning xususiyatlari

	Konsepsiya	Asosiy mazmuni	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	TQM (Total Quality Management)	Barcha xodimlar ishtirokida sifatni uzluksiz boshqarish	Har bir bo‘g‘inda sifat nazorati kuchayadi	Joriy etish jarayoni uzoq muddat talab qiladi
2	Kaizen	Doimiy, bosqichma-bosqich yaxshilash falsafasi	Tejamkorlik, xodimlarning jalb qilinishi	Natija asta-sekin paydo bo‘ladi
3	Lean production	Resurslarni optimal boshqarish, isrofgarchilikni kamaytirish	Samaradorlikni oshirish	Yuqori intizom va monitoring talab etadi
4	Six Sigma	Nuqsonlarni aniqlash va 1mln. mahsulotda 3,4 ta nuqson darajasigacha kamaytirish	Statistik tahlil asosida sifatni oshirish	Malakali mutaxassislar zarur
5	Agile Quality	Moslashuvchanlik va tezkor innovatsion yechimlar	Bozorga tezkor moslashish	Qisqa muddatli strategiyaga ko‘proq mos keladi

Ushbu zamonaviy konsepsiyalar korxonalarga faqat sifatni oshirish bilan cheklanmasdan, balki raqobatbardoshlik, samaradorlik va mijozlar ishonchini mustahkamlash imkonini beradi. Demak, zamonaviy sifat menejmenti – bu strategik fikrlash, innovatsion yondashuv va uzluksiz rivojlanish asosidagi boshqaruv tizimidir.

Raqamli texnologiyalar va sifat menejmenti integratsiyasi. Raqamli texnologiyalar sifatni boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda:

IoT (Internet of Things) – mahsulot va uskunalarning real vaqt rejimida sifat monitoringini ta’minlaydi.

Big Data – katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, sifatdagi kamchiliklarni tezkor aniqlaydi.

AI (sun’iy intellekt) – ishlab chiqarish jarayonlarini bashorat qiladi va optimallashtiradi.

Blokchain – mahsulotning kelib chiqish va sifat sertifikatini ishonchli nazorat qilish imkonini beradi.

Ushbu texnologiyalar – sifat menejmenti tizimlarini nafaqat samarali, balki shaffof va barqaror qiladi.

Sifat falsafasi – bu tashkilotda sifatga bo‘lgan umumiy yondashuv, qadriyatlar va strategik qarashlar tizimidir. U sifatni nafaqat mahsulot yoki xizmatda, balki barcha tashkiliy jarayonlarda chuqur anglab, doimiy takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Sifat menejmenti esa – bu sifatni ta’minlash va oshirishga qaratilgan amaliy boshqaruv tizimi bo‘lib, u resurslarni muvofiqlashtirish, jarayonlarni boshqarish va mijoz ehtiyojlariga javob berishni ta’minlaydi.

Ushbu ikki tushunchaning integratsiyasi natijasida quyidagi muhim natijalar yuzaga keladi:

Sifatni kompleks boshqaruv tizimiga aylantirish.

Innovatsion jarayonlarni sifatiga yo‘naltirish.

Iste’molchilar ehtiyojlarini oldindan prognoz qilish.

Integratsiyaning modelini quyidagi jadval orqali ko‘rsatish mumkin(2-jadval).

2-jadval.

Sifat falsafasi va menejmenti integratsiyaning konseptual modeli

Yo‘nalish	Falsafiy mazmuni	Menejmentdagi ifodasi
Mahsulot qadri	Inson ehtiyojlari va qadriyatlarini qondirish	Bozor monitoringi va iste’molchi tahlili
Takomillashuv	Yangi qadriyatlar yaratish	Innovatsion g‘oyalarni joriy etish
Barqarorlik	Jamiyat va ekologiyaga foyda keltirish	ISO 14001 va “yashil texnologiyalar” tizimi
Samaradorlik	Minimal resurs bilan maksimal natija	Lean va Six Sigma metodlari

Innovatsion yondashuvlarning amaliy natijalari. Sifat falsafasi va menejment integratsiyasi amaliy jihatdan quyidagi natijalarni beradi:

Mahsulot va xizmatlarning ishonchliligi oshadi;

Mahsulotlar kamayadi, resurslardan samarali foydalaniladi;

Iste’molchi qondirish va brend sodiqligi mustahkamlanadi;

Korxona raqobatbardoshligi kuchayadi;

Ekologik barqarorlik ta’minlanadi.

Masalan, Yevropa Ittifoqida ishlab chiqaruvchilar sifat menejmenti tizimini “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari bilan uyg‘unlashtirib, energiya samarador mahsulotlar yaratmoqda.

Shunday qilib, yuqoridagilar asosida quyidagi xulosa va takliflarni berish mumkin. Innovatsion yondashuvlarda sifat falsafasi va sifat menejmentining integratsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iste’molchilar ehtiyojini qondirish va jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosalar:

Sifat falsafasi innovatsion davrda nafaqat ehtiyojlarni qondirish, balki yangi talablarni shakllantirishga qaratilgan.

Sifat menejmenti tizimlari raqamli texnologiyalar yordamida yangi bosqichga ko‘tarildi.

Falsafa va menejmentning integratsiyasi korxona raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omildir.

Takliflar:

Korxonalarda innovatsion sifat falsafasini shakllantirishi bo‘yicha maxsus dasturlar joriy etish.

Sifat menejmentini IoT, Al va Big Data texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish.

Mahsulot sifati mezonlarini ishlab chiqishda ekologik va ijtimoiy talablarni keng qamrab olish.

Innovatsion menejment va sifat boshqaruvi integratsiyasini milliy standartlashtirish tizimiga tadbiq etish.